Bo'lajak o'qituvchilarni Case Study texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash	2470
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna, Doliyeva Maxfuza Inomiddinovna	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati	2473
G'iyosova Dilovar Orif qizi	
Intelлект xaritalar yordamida o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish.....	2476
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari orqali yosh voleybolchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	2482
Imomov Sirojiddin Ilhomovich	
The Historical Roots of Business English and the Lingua Franca.....	2486
Jabborov Ilyosjon Abduraim ugli	
O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda darajalangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish	2490
Kadirova Gulnora Xasanovna	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish	2496
Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Ubaydullayeva Komila Bozor qizi	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish usullari (boshlang'ich sinf matematika darslari misolida).....	2501
M. M. Qosimova	
O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy an'analar va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning psixologik omillari	2504
Maxmudjonov I. I.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	2507
Muminova Dilfuza Bahromjanovna	
Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi.....	2510
Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi	
Tabiiy fanlar darslarida guruhli ish shakllarini takomillashtirish nazariyasi va metodi.....	2513
Safarova Shahlo Shuhratali qizi	
Maktabda informatika fanini o'qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish	2517
Saidova Dilfuza Ergashovna, Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2521
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi	

Developing Strength and Endurance in Wrestlers.....	2526
Shermatov Gulom Qaxxorovich	
Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition	2532
Shermumamadova Diyorakhon Nurmuhomad kizi	
Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish.....	2535
Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li	
Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar	2539
Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi	
Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimmetriyasini bartaraf etish	2543
To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari	2546
Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna	
Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	2550
Uzakov Arslon Avazovich	
Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari	2553
Xolboboyev Shaxruz Shokirovich	
Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari	2559
Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna	
Boks texnikasini takomillashtirish usullari.....	2562
Xusanboy Mamatqulov	
No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv	2566
Yo'ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi	
O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari.....	2570
Ayupova Xilola Azamatovna	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским	2574
Касимов Азиз Бердимуратович	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatini tahlili.....	2578
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari	2581
Amriyeva Difuza Ruzievna	
Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	2586
Abdusamatov Alisher Sobirovich	
Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	2591
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari	2602
To'rabekov Farxod Sanakulovich	
Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi	2607
Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li	
Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations	2610
Gulmira Kamoladdinovna Madirimova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari	2613
Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna	
Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati.....	2617
Raxmatova Nodira	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....	2621
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish	2625
Nosirova Dilnoza Toir qizi	
Funksiya grafigini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
Musurmonova Shahlo G'ulomovna	
Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
Rashidova Sanobar Zokirovna	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhraxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov Toxir To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons in the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaql Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам.....	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoeemotsional holatining tahlili.....	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	
O'qituvchilarda stressni boshqarish ko'nikmalarining dars samaradorligiga ta'siri	2687
Nazarova Sitora Maxamatovna	
Improving Media Competence Development in Future Teachers.....	2689
Urinov Rustambek Yoqubjonovich	
Ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari: zamonaviy ta'limda kreativ fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishning o'rni	2694
Berdiyeva Nilufar Berdiyev qizi	
Boshlang'ich sinflarda ulush tushunchasini 4K modeli orqali o'rgatish metodikasi	2699
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Abdiqudirova Aziza Shukurboy qizi	
Noto'liq oilalarda maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanishi va xulq-atvori.....	2706
Barno Masharipova Erkin qizi, Sabirbaeva Aydana	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2710
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi	
Роль рефлексивных свойств в развитии психологической компетентности.....	2715
Рахманова Дилноза Фармановна	
XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli.....	2718
Rajabova Nodirabegim Komilovna	
PhET veb-platformasi orqali o'quvchilarning fizika fanidan mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish (Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari misolida).....	2720
Axmedov Yodgorbek Olimjonovich	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda mediasavodxonlikni shakllantirish – mediatahdidlarning oldini oluvchi omil sifatida.....	2724
Ortiqova Nargiza Akramovna	
Talabalarda aksiologik yondashuvga asoslangan tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning falsafiy-pedagogik negizlari	2729
Abdurazzakova Zebiniso Akmalxon qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik mexanizmlarini takomillashtirish	2733
Sanginova Gulnoza Baxodirovna	
Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida raqamli monitoring platformalarini joriy etishning ta'lim sifati va kasbiy rivojlanishga ta'siri	2740
Bisenbaev Islambek Qaypnazarovich	
Individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishda pedagogik yondashuvlar	2744
Kabilova Sevara Rashid qizi	



Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqaruv tamoyillaridan foydalanishni takomillashtirish.....	2748
Rajabova Nargiza Ahmadovna	
Ложь как социально-психологический феномен: генезис и функции в процессе социализации личности.....	2751
С. Ю. Нишанов	
Формирование личностных и профессиональных качеств директоров: педагогическая деятельность дошкольных образовательных организаций, психологические особенности	2756
Мухторова Заррина Султоновна, Бектошева Динора Зоҳиджон кизи	
Персональные данные директоров дошкольных образовательных организаций: анализ передового зарубежного опыта формирования профессиональных качеств.....	2759
Мухторова Заррина Султоновна, Амридинова Гуласал Аминжоновна	
Inklyuziv ta'limda zamonaviy tibbiy tashxisning o'rni va ahamiyati.....	2762
Raximov Atanazar Karimovich, Yuldashova Iroda Dilshodovna, Mitalova Nargiza Salibaevna	
Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari.....	2765
Abduraimova Gulnoza Sharif qizi	
Matematika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish	2769
Xolmurzayeva Nigora Abdimurotovna	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish	2774
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li	
Harakatlanuvchi robotlarda to'siqlarni aniqlash uchun kalman filtr texnologiyasi	2780
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Raximov Muzaffar Mirzohid o'g'li	
Milliy ertak qahramonlari haykallarini yasash orqali o'quvchilarda badiiy obrazni tahlil qilish metodikasini shakllantirish	2785
Qodirov Bobirjon Botirjonovich	
Boshlang'ich sinflarda o'yin texnologiyalari asosida savod o'rgatish jarayonini takomillashtirish	2790
Husenova Aziza Sharipovna, Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi	
Rus tilidagi harakat natijasi holat fe'llarining leksik-semantik guruhlar tuzilishi	2794
Kurbanova Gulzoda Yunusovna	
Nemis tilidagi somatik frazeologizmlar va ularning kommunikativ funksiyalari.....	2797
Mirzakarimov Maxmudjon Ro'ziboyevich	
Milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish metodikasi	2800
Murodov Nodirbek Oybek o'g'li	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda o'quv jarayonini loyihalashning nazariy jihatlari.....	2804
Nurullayev Abduhamid Ro'zimboyevich	
Python dasturlash tilida matematik figuralarni chizish metodikasi.....	2809
Rajabova Gulchekhra Salomovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya asosida yondashuvlarni kompetensiyaviy rivojlantirishdagi ahamiyati.....	2814
Sadriiddinova Zulfiya Mirzaliyevna	
Bo'lajak mutaxassislarda integrativ yondashuv asosida kasbiy-madaniy munosabatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish.....	2820
Saidova Barno Narzullayevna, Usmonova Sabina Iloxom qizi	
Boshlang'ich sinflarda etnopedagogik namunalaridan foydalanish usullari	2823
Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi, Sultonova Sevinch Doston qizi	
Психологические методы диагностики правонарушающего поведения в подростковом возрасте	2827
Пардаева Умида Мухтар кизи	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirish	2831
U. Y. Axmedova, M. M. Ibrohimova	
XX asr boshlarida buxoro hududida ichki migratsiya jarayonlarining sabablari va oqibatlari	2834
Nuriddinov Abrorbek To'liqin o'g'li	
Ijtimoiy-tarixiy tafakkurni shakllantirish kompetensiyasi.....	2838
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Saidova Oygul Husenovna	
Ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalarning imkoniyatlari	2841
Tursunova Gulsora Adahamjon qizi	
Ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning samarali metodik tizimini yaratish imkoniyatlari.....	2844
Olimov Timur Xasanovich, Yuldashev Ta'lant Abdinazarovich	
Методические возможности ИКТ-тестирования в контроле учебных достижений учащихся старших классов (по результатам педагогического эксперимента).....	2848
Уразова Марина Ботировна, Асанова Кямиле Усмановна	



BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA O'QUV JARAYONINI LOYIHALASHNING NAZARIY JIHATLARI

Nurullayev Abduhamid Ro'zimboyevich

Buxoro davlat pedagogika instituti

“Jismoniy tarbiya va sport” kafedrası professori

ORCID: 0009-0004-2641-3644

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o'quv jarayonini loyihalashning nazariy jihatları yoritib berilgan. Unda pedagogik loyihalash tushunchasining mazmuni, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlashdagi o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. O'quv jarayonini loyihalashda kompetensiyaviy yondashuv, tizimlilik, uzviylik va natijaga yo'naltirilganlik tamoyillariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda metodlardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishda o'quv jarayonini ilmiy asosda loyihalash muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o'quv jarayonini loyihalashning nazariy asoslarini aniqlash va ilmiy jihatdan asoslab berish, shuningdek, pedagogik loyihalashning mazmuni, tamoyillari hamda mexanizmlarini tahlil qilish orqali jismoniy tarbiya ta'limi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni yoritib berish mazkur tadqiqotning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda o'quv jarayonini loyihalashning nazariy jihatlarini yoritishga doir ilmiy-pedagogik manbalar tahlil qilindi. Jumladan, pedagogik loyihalash, ta'lim jarayonini modellashtirish, kompetensiyaviy yondashuv hamda jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari, dissertatsiyalari, ilmiy maqolalari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqot materialı sifatida tanlab olindi.

Tadqiqot natijasida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda o'quv jarayonini loyihalash muhim pedagogik omil ekanligi aniqlandi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayonini loyihalash ta'lim mazmuni, shakl va metodlarini oldindan puxta rejalashtirish orqali bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda nazariy bilimlar bilan amaliy mashg'ulotlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash loyihalash jarayonining asosiy natijalaridan biri sifatida e'tirof etildi. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o'quv jarayonini loyihalash ta'lim samaradorligini oshirishning muhim nazariy va amaliy omili ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari pedagogik loyihalash ta'lim mazmunini tizimli tashkil etish, maqsad va kutilayotgan natijalarni aniqlashtirish hamda ta'lim jarayonining uzviyligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari, kasbiy tayyorgarlik, o'quv jarayonini loyihalash, pedagogik loyihalash, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetensiya.



Abstract: The article examines the theoretical aspects of designing the educational process in the professional training of future physical education teachers. It analyzes the content of the concept of pedagogical design, its role and significance in the educational process, as well as its specific features in the preparation of physical education specialists. Particular attention is paid to the principles of the competency-based approach, systematicity, coherence, and result-orientedness in designing the educational process. The article substantiates the necessity of using modern pedagogical technologies and methods in the formation of professional knowledge, skills, and qualifications of future teachers. The results of the study demonstrate that scientifically grounded design of the educational process is an important factor in improving the quality of training of physical education teachers. The purpose of the study is to identify and scientifically substantiate the theoretical foundations of educational process design in the professional training of future physical education teachers, as well as to highlight methodological approaches that contribute to increasing the effectiveness of physical education teaching through an analysis of the content, principles, and mechanisms of pedagogical design. During the research process, scientific and pedagogical sources were analyzed to elucidate the theoretical aspects of educational process design in the professional training of future physical education teachers. In particular, scientific works, monographs, dissertations, scholarly articles, and regulatory legal documents of domestic and foreign researchers on pedagogical design, modeling of the educational process, the competency-based approach, and the training of physical education teachers were selected as research materials. The study found that the design of the educational process is a significant pedagogical factor in the professional training of future physical education teachers. Analysis of scientific sources showed that educational process design facilitates the effective formation of professional competencies of future specialists through the careful and advance planning of educational content, forms, and methods. In particular, ensuring continuity between theoretical knowledge and practical training in the preparation of physical education teachers was identified as one of the main outcomes of the design process. In conclusion, it was determined that the design of the educational process in the professional training of future physical education teachers is an important theoretical and practical factor in increasing educational effectiveness. The results of the study indicate that pedagogical design plays a crucial role in the systematic organization of educational content, the clarification of goals and expected outcomes, and the assurance of continuity in the educational process.

Key words: future physical education teachers, professional training, educational process design, pedagogical design, competency-based approach, educational process, pedagogical technologies, professional competence.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические аспекты проектирования образовательного процесса в системе профессиональной подготовки будущих учителей физического воспитания. Анализируется содержание концепции педагогического проектирования, ее роль и значение в образовательном процессе, а также специфика применения в подготовке специалистов по физическому воспитанию. Особое внимание уделяется принципам компетентностного подхода, системности, согласованности и результативности при проектировании образовательного процесса. В статье обосновывается необходимость использования современных педагогических технологий и методов в формировании профессиональных знаний, умений и квалификаций будущих учителей. Результаты исследования показывают, что научно обоснованное проектирование образовательного процесса является важным фактором повышения качества подготовки учителей физической культуры. Целью исследования является выявление и научное обоснование теоретических основ проектирования образовательного процесса в профессиональной подготовке будущих учителей физической культуры, а также определение методических подходов, способствующих повышению эффективности преподавания физической культуры, на основе анализа содержания, принципов и механизмов педагогического проектирования.

В ходе исследования были проанализированы научно-педагогические источники, освещающие теоретические аспекты проектирования образовательного процесса в профессиональной подготовке будущих учителей физической культуры. В качестве исследовательского материала были отобраны научные труды, монографии, диссертации, научные статьи и нормативно-правовые документы отечественных и зарубежных ученых, посвященные проблемам педагогического проектирования, моделирования образовательного процесса, компетентностного подхода и подготовки учителей физической культуры. В результате исследования установлено, что проектирование образовательного процесса является значимым педагогическим фактором в профессиональной подготовке будущих учителей физической культуры. Анализ научных источников показал, что проектирование образовательного процесса способствует эффективному формированию профессиональных компетенций будущих специалистов посредством предварительного и целенаправленного планирования содержания, форм и методов обучения. В частности, обеспечение преемственности теоретических знаний и практической подготовки в обучении учителей физической культуры признано одним из ключевых результатов процесса проектирования. В заключение установлено, что проектирование образовательного процесса в профессиональной подготовке будущих учителей физической культуры представляет собой важный теоретико-практический фактор повышения эффективности обучения. Результаты исследования свидетельствуют о том, что педагогическое проектирование играет существенную роль в системной организации образовательного содержания, уточнении целей и ожидаемых результатов обучения, а также в обеспечении преемственности и целостности образовательного процесса.

Ключевые слова: будущие учителя физической культуры, профессиональная подготовка, проектирование образовательного процесса, педагогическое проектирование, компетентностный подход, образовательный процесс, педагогические технологии, профессиональная компетентность.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan tegishli qarorlar asosida jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun yangi malaka toifalarini berish tartibi joriy etilmoqda: endilikda ular nafaqat nazariy testlardan, balki amaliy imtihonlardan ham o'tadilar. Bu esa o'qituvchilarning kasbiy malakasini yanada oshirishga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha kadrlar tayyorlash tizimi yangi bosqichga ko'tarilib, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida zamon talablari darajasida mutaxassislar tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Unda xalqaro tajriba va zamonaviy metodlarni joriy etish, amaliyotga real sport ustalarini jalb etish nazarda tutilgan. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish doirasida UNESCO bilan hamkorlikda SmartED loyihasi boshlangan bo'lib, u pedagoglarni, jumladan, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini xalqaro standartlar asosida tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ko'zda tutadi. Ushbu islohotlar O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashni sifat va samaradorlik jihatidan oshirishga qaratilgan bo'lib, nafaqat nazariy pedagogik bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Zamonaviy maktablarning talablari oliy professional pedagogik ta'lim maqsadlarini jiddiy qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Eng muhim vazifalardan biri yuqori ilmiy va metodologik salohiyatga ega bo'lgan yangi turdagi o'qituvchini shakllantirish sifatida belgilanmoqda: endilikda ularning kasbiy tayyorgarligini faqat psixologik, pedagogik va fan-metodologik bilim hamda ko'nikmalarni to'plash bilan cheklash yetarli emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogika universiteti uchun kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'qituvchining, ya'ni yosh mutaxassisning, kasbiy ta'limi natijasi fanga oid bilim va ko'nikmalarning oddiy yig'indisi emas, balki ularni turli pedagogik vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lishini anglatadi. Shu bois pedagogika universiteti bitiruvchisining kompetensiyalari mavjud fanga oid bilimlar, o'zlashtirilgan pedagogik texnologiyalar hamda o'qituvchilik faoliyatida kutiladigan vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish qobiliyatining uzviy birligidan iboratdir. Shuningdek, kompetensiya dastlab rivojlantirilgan qobiliyatlarni boshqa, yangi sharoitlarga ko'chira olish imkoniyati bilan tavsiflanishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini o'rganishda bir nechta asosiy yo'nalishlar ajratiladi: o'qituvchining professional faoliyatining psixologik asoslarini tahlil qilish (L. S. Vygotskiy, A. N. Leontiev, A. K. Markova, N. V. Kuzmina va boshqalar), o'qituvchi shaxsining pedagogik yo'nalishini shakllantirish hamda uning professional jihatdan muhim fazilatlarini rivojlantirish uchun asoslarni ishlab chiqish (I. Ya. Lerner, M. N. Skatkin, A. I. Shcherbakov, V. A. Slastenin) va pedagogik ijodkorlikning kelib chiqishini aniqlash (Yu. N. Kulyutkin, M. M. Potashnik va boshqalar).

Mutaxassisning "ideal modeli"ni yaratishda deyarli barcha mualliflar kompetensiyani faqat faoliyat jarayonida va muayyan kasb doirasida rivojlantirish, tahlil qilish va baholash mumkinligini ta'kidlaydilar. Atamaning talqiniga asoslanib (competentia – lotincha, shaxsning yaxshi biladigan, bilim va tajribaga ega bo'lgan masalalar doirasi), A. V. Xutorskoy ta'kidlaganidek, "muayyan sohada malakali shaxs tegishli bilim va qobiliyatlarga ega bo'lib, bu unga ushbu soha haqida asosli qarorlar qabul qilish va unda samarali harakat qilish imkonini beradi" [9].

Kompetensiya shunchaki bilim, qobiliyat va ko'nikmalarning yig'indisi emas. V. A. Bolotov va V. V. Serikovning fikriga ko'ra, kompetensiyaning tabiati shundan iboratki, u o'rganish mahsuli bo'lsa-da, undan to'g'ridan-to'g'ri kelib chiqmaydi, balki shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish natijasi hisoblanadi; u texnologik emas, balki shaxsiy o'sish, o'zini o'zi tashkil etish, faoliyatga asoslanganlik va shaxsiy tajribani umimlashtirish jarayonida shakllanadi [3].

Ushbu konsepsiyaning yana bir muhim talqini Yu. G. Tatur tomonidan berilgan bo'lib, unga ko'ra oliy ma'lumotli mutaxassisning kompetensiyasi professional sohada muvaffaqiyatli, samarali va ijodiy faoliyat yuritish uchun o'z salohiyatini (bilim, ko'nikma, tajriba, shaxsiy fazilatlar va boshqalar) amalga oshirishga bo'lgan istagi va qobiliyati, ushbu faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini anglash hamda uning natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni his etish, shuningdek, o'zini doimiy ravishda takomillashtirish zarurligini tushunishdan iboratdir [8; 23-bet].

Oliy ma'lumotli mutaxassis kompetensiyasining mazkur ta'rifi kasbiy tayyorgarlik natijasini ifodalaydi va uning asosiy maqsadi shaxsda turli kasbiy muammolarni ko'ra olish, ularni tan olish va baholash, konstruktiv hal etish hamda har qanday qiyinchilikni keyingi rivojlanish uchun rag'bat sifatida qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv bilimning ahamiyatini inkor etmaydi, aksincha, olingan bilimlardan samarali foydalanish qobiliyatini alohida ta'kidlaydi [8; 24-bet].

Demak, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi va uning professionalligini tavsiflaydi. A. V. Barannikov tomonidan berilgan kompetensiya ta'rifi o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni va natijasiga tatbiq etilishi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'lib, u kompetensiyani talabaning (ya'ni bo'lajak o'qituvchining) olgan bilim va ko'nikmalari, akademik va hayotiy tajribasi, kognitiv faoliyati hamda ta'lim amaliyoti orqali rivojlangan qadriyatlarini



va moyilliklari asosida shakllanadigan, mustaqil ravishda amalga oshiriladigan qobiliyat sifatida talqin etadi. Kompetensiya amaliy faoliyatda, yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish jarayonida namoyon bo'lib, uning sifat ko'rsatkichi aynan shu holatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy maktablar nafaqat metodologik tavsiyalarni yaxshi biladigan va ularni qo'llay oladigan mutaxassislarni, balki tez o'zgarib borayotgan sharoitlarga malakali javob bera oladigan, mavjud ta'lim holatini munosib baholay oladigan hamda maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash bilan bog'liq ko'plab amaliy muammolarni hal qila oladigan mutaxassislarni ham talab etadi. Biroq an'anaviy o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni asosan psixologik, pedagogik va fan-metodologik bilim hamda ko'nikmalarni to'plashga yo'naltirilgan.

Oliy kasb-hunar ta'limi pedagogik ta'lim muassasalarining ta'lim makoniga tadqiqot usullarining faol joriy etilishiga qaramay, so'nggi yillarda o'tkazilgan psixologik va pedagogik tadqiqotlar natijalari akademik fanlarning metodologik tarkibiy qismini kuchaytirish hamda talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish masalalari, umuman olganda, ularning kasbiy faoliyatga tayyorligi darajasini yetarli ta'minlamayotganini ko'rsatmoqda. Yuqorida qayd etilgan hamda oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis o'qituvchilarni tayyorlash muammolariga bag'ishlangan boshqa tadqiqotlar o'qituvchi shaxsiyati uning kasbiy faoliyati davomida shakllanishini, ushbu jarayon esa pedagogika institutlarida o'qish davridayoq boshlanishini ta'kidlaydi. Mazkur tadqiqotlarda o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash talablarini amalga oshirishning turli usullari taklif etilib, ular asosan o'qituvchilar tayyorlashning amaliy yo'nalishini kuchaytirish yo'llarini izlash bilan bog'liq. Ushbu izlanishlarning hozirgi yo'nalishlaridan biri pedagogika universitetlarida (I.A. Zimnyaya, V.A. Adolf, A.V. Xutorskoy va boshqalar) bo'lajak o'qituvchilarni rivojlantirishda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etishni o'z ichiga oladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi turli ta'lim vaziyatlarida yuzaga keladigan odatiy kasbiy muammolarni hal etish qobiliyatini, ya'ni olingan bilimlar va kasbiy tajribaga tayangan holda samarali faoliyat yuritish imkoniyatini belgilovchi ajralmas xususiyat sifatida talqin etiladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning vujudga kelishi ta'lim tizimidagi tabiiy rivojlanish jarayoni bo'lib, uni jamiyatning doimiy ravishda o'sib borayotgan ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish zarurati bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu yondashuv zamonaviy ta'limda talabalarning bilimlarini rivojlantirish, eng muhim amaliy muammolarni hal qilish qobiliyati bilan bir qatorda, ularning shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun zarur deb hisoblangan kompetensiyalar tushunchasiga asoslanadi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashga bag'ishlangan tadqiqotlarda kasbiy kompetensiya ularning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining eng muhim xususiyati sifatida talqin qilinadi hamda o'ziga xos kompetensiyalar majmuasini ifodalaydi [1; 6; 7; 8 va boshqalar].

Pedagogika universitetlari bitiruvchilarining bilim darajasini esa ularning kompetensiyasini, ya'ni zarur kompetensiyalarni o'zlashtirish darajasini baholash orqali aniqlash mumkin [2; 3; 7; 9].

Ta'lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishning konseptual xususiyatlarini muhokama qilish kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish zarurati nimada va shu asosda ta'lim jarayonini tashkil etish uning bilim, qobiliyat va ko'nikmalarga qaratilgan an'anaviy tizimi bilan qanday bog'liqligi haqidagi savolga javob izlash bilan chambarchas bog'liq.

I.A. Zimnyaya [5] ushbu masala yuzasidan ta'limga joriy etilayotgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvni analitik jihatdan tekshirish zarurati integratsiyaning umumevropa va global tendensiyalari, jahon iqtisodiyotining globallashuvi hamda, ayniqsa, oliy ta'lim makonida yuz berayotgan o'zgarishlarning jadal-lashuvi bilan izohlanishini ta'kidlaydi. Shuningdek, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni ta'lim tizimiga kiritish zarurati ta'lim paradigmasida doimiy ravishda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv ta'limning amaliyotga yo'naltirilgan xususiyatini kuchaytiradi, fan-kasbiy jihatni mustahkamlaydi, tajribaning rolini, bilimlarni amalda qo'llash va muammolarni hal qilish qobiliyatini alohida ta'kidlaydi hamda shu sababli bilim, ko'nikma va malakalarga qarshi qo'yilishi mumkin emas, biroq u bilimning ko'nikmalarga bo'ysunishini belgilab berishi bilan an'anaviy yondashuvdan farqlanadi [5; 22-bet].

Ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv 1960-1970-yillarda shakllana boshlagan bo'lib, XX asrning aynan shu davrida "kompetensiya" tushunchasi ilmiy muomalaga kiritildi va kompetensiya hamda kompetentlik tushunchalarini farqlash zarurati yuzaga keldi.

Keyinchalik 1970-1990-yillarda mazkur tushunchalar boshqaruv ta'limi nazariyasi va amaliyotida keng qo'llanila boshladi. A.K. Markovanning 1993 va 1996-yillarda chop etilgan asarlarida mehnat psixologiyasining umumiy kontekstida, xususan, o'qituvchi mehnatida professional kompetensiya maxsus va keng qamrovli tadqiqot mavzusiga aylangan [6].

Ushbu davrda kompetensiya kasbga yaroqlilik darajasining individual xususiyati sifatida, shaxsning muayyan ish funksiyalarini bajarish, mustaqil va mas'uliyatli harakat qilish qobiliyati hamda ko'nikmasi sifatida talqin etilgan [6; 34-35-bettlar]. Mazkur yondashuv doirasida kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadi mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali, o'z kasbini puxta egallagan, faoliyatning tegishli sohalarini yaxshi biladigan hamda doimiy kasbiy o'sish, ijtimoiy va professional harakatchanlikka tayyor mutaxassisni tayyorlashdan iboratdir.

V.A. Bolotov ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni shaxsning ta'lim fanlari va o'quv vaziyatlari doirasidan tashqarida samarali harakat qilish qobiliyatining umumlashtirilgan sharti sifatida izohlaydi [3].

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv mazmunsiz yodlashdan voz kechib, bilimni amaliy faoliyatda axborotdan samarali foydalanish qobiliyati sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv ta'lim natijasini olingan bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki shaxsning turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, ya'ni uning kompetensiyasi sifatida baholaydi va bu holat mutaxassisning muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga tayyorligi sifatida izohlanadi [4].

Ta'lim jarayonida kompetensiyaga asoslangan yondashuv talabalarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini baholashning muhim usuli sifatida e'tirof etilib, bunda kasbiy tayyorgarlik mezonlari belgilangan kompetensiyalar va ularning tarkibiy qismlari orqali aniqlanadi hamda kasbiy ta'lim natijalarini modellashtirish va ularni oliy ta'lim uchun sifat standartlari sifatida tahlil qilish imkoniyati yaratiladi [7; 8].

XULOSA

Yuqoridagi barcha ta'riflarda bilim kompetensiyalarning asosini tashkil etadi. Bilimlardan foydalanish turli vaziyatlarda murakkab muammolarni hal qilish jarayonida, muloqot faoliyatida hamda yangi bilimlar, qobiliyatlar, ko'nikmalar, munosabatlar va qadriyatlarni egallash hamda rivojlantirish jarayonida amalga oshiriladi. Ushbu tushunchaga ko'ra, kompetensiya bilim, tajriba, qadriyatlar va shaxsiy moyilliklarga asoslangan umumiy qobiliyat sifatida talqin etiladi, ko'nikma esa muayyan vaziyatlarda namoyon bo'ladigan harakat sifatida, ya'ni ma'lum bir kompetensiyaning tashqi ifodasi sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адольф В. А. Профессиональная компетентность учителя: монография. – Красноярск, 1998. – 310 с.
2. Бараников А. В. Самообразование и компетентностный подход – качественный ресурс образования: теория и практика. – М.: Московский центр качества образования, 2009. – 496 с.
3. Болотов В. А., Сериков В. В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. – URL: pedlib.ru/Books/5/0306/5_0306-1.shtml (дата обращения: 14.03.2014); Глоссарий терминов профессионального образования и рынка труда. – М., 2011. – 63 с.
4. Зимняя И. А. Компетентностный подход: каково его место в системе современных подходов к проблемам образования? (теоретико-методологический аспект) // Высшее образование сегодня. – 2006. – № 8. – С. 21–26.
5. Маркова А. К. Психология профессионализма. – М., 1996. – 308 с.
6. Рябов В. В., Фролов Ю. В., Махотин Д. А. Критерии оценки педагогической деятельности на языке компетенций и компетентностей: предложения по созданию профессионального и образовательного стандартов педагога: научно-практическое пособие для руководителей и специалистов системы образования. – М.: ООО "НИЦ Инженер", 2007. – 92 с.
7. Татур Ю. Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалиста // Высшее образование сегодня. – 2004. – № 3. – С. 21–26.
8. Хуторской А. В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты // Интернет-журнал "Эйдос". – 2002. – 23 апреля. – URL: <http://www.eidos.ru/journal/2002/0423.htm> (дата обращения: 14.04.2014).
9. Фрумин И. Д. Компетентностный подход как естественный этап обновления содержания образования // Педагогика развития: ключевые компетентности и их становление: материалы 9-й научно-практической конференции. – Красноярск, 2003. – 216 с.
10. Хуторской А. В. Компетентностный подход в обучении: научно-методическое пособие. – М.: Издательство "Эйдос"; Издательство Института образования человека, 2013. – 73 с.
11. Хуторской А. В. Личностная ориентация образования как педагогическая инновация // Школьные технологии. – 2006. – № 1. – С. 6–12.
12. Машарипов Ф. Т. Технология организации физического образования студентов в образовательных учреждениях // "Замонавий спортда муаммо ва ечимлар" халқаро анжумани тўплами. – Чирчиқ, 2021. – 83 б.
13. Матвеев Л. П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. – Киев: Олимпийская литература, 1999. – 320 с.; Гончарова О. В. Ёш спортчиларнинг жисмоний қобилиятларини ривожлантириш. – Т.: ЎзДЖТИ, 2005. – 171 б.
14. Ma'murov B. B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish: monografiya. – T.: Fan, 2017. – 144 b.
15. Асадов Ю. М. Индивидуально-психологические особенности учителя как факторы развития профессионализма: автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Т., 2007. – 25 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.